

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Bekmurodova Dilshoda Farhod qizi

Samarqand Davlat Pedagogika Instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18241883>

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonning taraqqiyot topishida ta'lim tizimi juda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu maqola Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimining o'rnini va olib borilayotgan islohotlar haqida. Yurtimizda mustaqillik yillaridan boshlab hozirgi kungacha ta'lim tizimida keng miqyosda islohotlar o'tkazildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan to oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limgacha ko'plab ishlar olib borildi. Yoshlarni Vatanga bo'lgan muhabbat, Vatan tuyg'usi bilan ulg'aytirib, ilm olish orqali vatanimizni rivojiga hissa qo'shishyapti. 2023-yil sentabr oyida Prezidentimiz farmoni bilan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Ikki yildan buyon ta'lim tizimida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida tenglashmoqda.

Kalit so'zlar: "O'zbekiston - 2030" strategiyasi, islohotlar, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar, ta'limni raqamlashtirish, kredit modul tizimi, muammo va yechimlar.

Kirish: Ta'lim tizimini rivojlantirish mamlakat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi chunki ta'lim - taraqqiyot poydevori. Prezidentimiz ta'kidlaganidek:

¹"Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq." Bugungi kunda yoshlarga ta'lim olishi uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berilayotgani bejiz emas. "O'zbekiston - 2030" strategiyasiga kiritilgan islohotlar orasida ta'lim tizimi alohida o'rin olgan. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasasalari soni va unga qabul qilingan talabalar soni keskin oshdi. Chet el oliygohlariga grant asosida qabul qilingan hamda, har xil ta'lim dasturlari orqali xorijda o'qiyotgan talabalar soni talaygina. ²Xususan, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrovni kamida 50 foizga yetkazish, ta'lim tizimini xalqaro mehnat bozoridagi o'zgarishlar, texnologik jarayonlarga mos tashkil etish, oliygohlardagi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish orqali 10 ta O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli "TOP-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish hamda 30 ta oliygohlarning ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishga erishish maqsadlari belgilangan.

Shuningdek, "TOP-500"ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 50 ta qo'shma ta'lim dasturlari asosida "ikki diplomli tizim"ni joriy etish va kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan. Ushbu maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish, ularni hayotga tatbiq etish orqali xalqaro standartlarga javob beradigan hamda dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'la oladigan mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi.

Qolaversa, keyingi yillarda oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarini kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish, qo'shimcha 120 ming o'rinli o'quv binolari hamda 150 ming o'rinli talabalar turar joylarini qurish va foydalanishga topshirish natijasida oliy ta'lim muassasalarining o'quv infratuzilmasiga hamda

¹ [Ta'lim tizimiga yanigcha yondashuv va islohotlar](#)

² [«O'ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASI: TA'LIM TIZIMINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA INDIKATORLARI BELGILANDI](#)

talaba-yoshlarning turar joyga bo'lgan ehtiyojlari qoplanib, oliygohlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi.

Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar

Yangi O'zbekistonda ko'plab yangi texnologiyalar bilan ta'mirlangan prezident maktablari va davlat maktablari barpo etildi. Bunday maktablar eng so'nggi texnologiyalar: kompyuterlar, interaktiv doskalar, laboratoriya uchun yangi xona va jihozlar, yangicha shaklda qayta ishlab chiqilgan darsliklar bilan ta'minlandi. Bunday yangicha ta'lim tizimi va islohotlardan so'ng o'quvchi va talabalar o'rtasida bilim darajasi sezilarli darajada o'sdi. ³So'nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratildi.

Hududlardagi 500 ta maktabda Prezident va ixtisoslashgan maktablarning baholash tizimi joriy etilgan. Natijada ilg'or xorijiy tajriba asosida vaziyatni tahlil qilish, muammoni yechish, jamoada ishlash kabi amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizga yetkazilgan. 208 ta maktabning yuqori sinf o'quvchilariga 3 ta yo'nalish bo'yicha kasbga o'rgatish yo'lga qo'yildi. Chet tilini bilish sertifikatiga ega bo'lgan maktab bitiruvchilari soni oxirgi ikki yilda 6 ming nafardan 18 mingga yetdi.

Ta'limni raqamlashtirish

⁴Ta'limni raqamlashtirish deganda ta'lim jarayonlarini boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish, ta'lim beruvchi va oluvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, ta'lim natijalarni yaxshilash, ma'lumotlarni tahlil qilish, ta'lim xizmatlaridan masofadan turib foydalanish uchun raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish tushuniladi. Bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi-pedagoglar, hamda talabalarining vaqtini tejash maqsadida online platformalar tashkil etilib ta'lim tizimi raqamlashtirildi. Masalan, hemis tizimi, e-maktab – maktab o'quvchilarini baholash uchun yaratilgan platforma. Bunday platformalar vaqtini tejaydi va harakatlarni osonlashtiradi.

⁵Ta'limni raqamlashtirishning asosiy maqsadlari:

1. Ta'lim ishtirokchilari uchun bir xil imkoniyat yaratish. Geografik joylashuvi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olish va uning xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
2. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish. Moslashuvchan, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, shu jumladan, ta'lim oluvchilarning qiziqish doirasi va o'zlashtirish natijalaridan kelib chiqib, ta'lim resurslarini taqdim etish. foydalanishdan iborat.
3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Ta'lim resurslaridan foydalanishni optimallashtirish va an'anaviy ta'lim usullari bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish.
4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Butun dunyo bo'ylab, ta'lim oluvchilar, beruvchilar va ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish.
5. Uzluksiz ta'lim. Hayot davomida o'rganish (Lifelong Learning) tamoyili asosida uzluksiz ravishda bilimlarni egallash va ko'nikmalarni rivojlantirib borish.
6. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish. Ta'lim siyosati va statistikasini yuritish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim resurslarini yangilash yoki o'zgartirishlar kiritish, shu

³ [Ta'lim va Innovatsiyalar](#)

⁴ [Innovatsion talim texnologiyalari.pdf](#)

⁵ [Innovatsion talim texnologiyalari.pdf](#)

jumladan, o'qitishning yangi uslublarini joriy etish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanishdan iborat.

Muammo va yechimlar

Har bir narsaning ijobiy tomoni bo'lgani kabi salbiy taraflari ham bor. Shuningdek, ta'lim tizimining muammolari ham bor. Shunga ko'ra yechimlar ham topiladi albatta. ⁶Asosiy muammolar:

- Ta'lim sifati va mazmuni – o'quv dasturlarining zamonaviy mehnat bozori talablariga to'liq mos kelmasligi.
- O'qituvchilar malakasi – ko'plab pedagoglar zamonaviy metodlar va texnologiyalarni yetarli darajada qo'llay olmaydi.
- Infratuzilma muammolari – ayrim hududlarda maktablar jihozlanishi past, internet va kompyuter texnologiyalari yetarli emas.
- Baholash tizimi – ko'proq nazariy bilimga asoslangan, amaliy ko'nikmalarni yetarli darajada baholamaydi.
- Tenglik masalalari – shahar va qishloq maktablari o'rtasida ta'lim sifati bo'yicha katta tafovut mavjud.

Xulosa

“Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ta'lim tizimidagi islohotlar mamlakatning kelajak taraqqiyoti uchun eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

- Ta'lim sifatini oshirish – o'quv dasturlarini zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlash.
- Pedagoglarni qo'llab-quvvatlash – o'qituvchilarni muntazam qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish va innovatsion metodlarni joriy etish.
- Raqamli ta'limni kengaytirish – elektron darsliklar, masofaviy ta'lim platformalari, AR/VR texnologiyalari va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarini joriy etish.
- Hududlararo tenglikni ta'minlash – shahar va qishloq maktablari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, barcha bolalarga sifatli ta'lim olish imkonini yaratish.
- Xalqaro hamkorlik – chet el universitetlari va tashkilotlari bilan qo'shma dasturlar orqali ta'lim sifatini oshirish va global tajribani joriy etish.
- Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini erta bosqichda ta'minlash.

Umumiy xulosa shuki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu islohotlar ta'limni zamonaviy, innovatsion va xalqaro standartlarga mos tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ta'lim tizimiga yanigcha yondashuv va islohotlar
2. Innovatsion_talim_tehnologiyalari.pdf
3. Ta'lim va Innovatsiyalar
4. «O'ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASI: TA'LIM TIZIMINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA

⁶ [Ta'lim tizimiga yanigcha yondashuv va islohotlar](#)

INDIKATORLARI BELGILANDI

5. Ta'lim sohasidagi islohotlar va «O'zbekiston-2030» strategiyasining o'rni

